

## BUYUK SIYMO HAYOTIGA NAZAR

*Ro‘zimova Gulbahar Sharafatdin qizi**Talaba, Toshkent davlat transport universiteti**[gulbahorruzimova2@gmail.com](mailto:gulbahorruzimova2@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Maqolada buyuk shaxs, vatanparvar inson, serqirra ijodkor, ikki xalq shoiri bo‘lmish Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodi, adabiyotga qo‘sghan hissasi shuningdek hayotda buyuk ota-bobolarimga qanday izdosh bo‘lishimiz kerakligi bayon etilgan.

**Kalit so’zlar:** dramaturg, she’riyat, poetik, adabiy meros, pedagog, siy whole

**Annotation:** The article describes the life and work of Maqsud Shaikhzoda, a great person, a patriotic person, a prolific creator, a poet of two peoples, his contribution to literature, as well as how we should be followers of my great ancestors in life.

**Key words:** playwright, poetry, poetic, literary heritage, pedagogical figure

Dramaturg, olim, tarjimon, pedagog, buyuk shoir Maqsud Shayxzoda nafaqat azarboyjan, balki o‘zbek millatining ham qalbidan joy olgan ulug‘ shaxsdir. U she’riy olaming tamomila o‘zgachaligi, undagi ifodalangan poetik mazmun boshqa ijod namunasida topilmasligi, shoir she’rlarining o‘zigagina mansub qoidasi bilan tug‘ilganligi va shunga ko‘ra yashashi, she’rlarning jilosi, mazmundorligi, ayniqsa O‘zbekistonga bo‘lgan muhabbat, o‘zbek eliga bo‘lgan hurmatini beqiyos tasvirlashi, vatan, vatanparvarligi bilan ajralib turadi. Maqsud Ma’sumbek o‘g‘li Shayxzoda Ozorbayjon Respublikasining Ganja viloyati Oqtosh shahrida 1908-yil 7-noyabr kuni tavallud topgan. Bu insonning adabiyotga bo‘lgan sevgisi yoshligidan boshlangandek, huddi ona qornidan tug‘ilgan iste’dod sohibasi edi. Biz shoirning she’rlarini o‘qir ekanmiz, satrlarga jo bo‘lgan ohangrabolik, chuqur ma’no, so‘zlarning xalq tiliga yaqinligi, soddaligi o‘quvchilar qalbidan joy olganligini tushinib yetamiz. U 5 yoshida qalamni qo‘liga olar ekan “Bo‘ri bilan olmaxon” deya atalgan, 8-10 misradan iborat masal yozadi, bu esa o‘zbek adabiyotida qalam tebratgan davlat arbobi, Alisher Navoiydek edi, ya’ni aytib o‘tmoqchimanki, Alisher Navoiy 4-5-yoshida qo‘lida qalam olib, Mavlono Lutfiyni lol qoldirdani singari, Maqsud Shayxzoda ham bizni hayratda qoldirdi. Shuni ta‘kidlab o‘tishim kerakki, birinchi bora Navoiyni “G‘azal mulkining sulton” deya ta‘riflagan va unga atab 1941-yil “Genial shoir” monografiyasini e‘lon qilgan shoirdir. Iste‘dodi orqasidan quvgan yosh ijodkor 1925-yildan boshlab Darbandagi 1-bosqich Ozorbayjon maktabida ustoz sifatida o‘zining faoliyatiga ilk qadamni qo‘yadi. Faoliyatini davom ettirgan shoir, keyinchalik Bo‘ynoqdagi texnikumida o‘quvchilariga ta‘lim - tarbiya beradi. Ming afsuski, 1927-yil

aksilinqilobiy ta'shkilot a'zosi sifatida qamoqqa olinib, bir yildan keyin 1928-yilning fevralida Toshkentga surgin qilinadi. Toshkent Maqsud Shayxzodani o'z farzandidek qabul qilib, bag'rini keng ochdi. Boshiga kulfat kelgan ijodkorni, bu ishlar sira tashvishlantirmadi, maqsadi oldida tik turgan, bel bog'lagan Shayxzoda Toshkentda turli gazeta – jurnallarda ishlaydi. Jumladan, 1935-1938-yillarda O'zbekiston Fanlar kommiteti qoshidagi til va adabiyot institutida ilmiy hodim, 1938-yil umrining oxirigacha Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida o'zbek mumtoz adabiyoti kafedrasida dosent vazifasida faoliyat yuritib boradi. Toshkent shoirga ajoyib hayotni bag'ishlagan edi. U Toshkentda yashab, Jaloliddin Manguberdi, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va o'zbek millatiga mansub buyuk siymolarni o'rganib, ularning hayotini, qilgan mehnatlarini qalamda tebratib, o'quvchilar qalbiga singdira boshladi. Adibning xotirasi shu darajada kuchli ediki, qiynalmasdan o'zbek tilini o'rganib, ravon, aniq gapira olgan edi. Yozuvchining ilk she'riy to'plami esa, 1933-yilda "Loyiq soqchi" shundan keyin adibning bir qancha, "O'nta she'r", "Undoshlarim", "Uchinchi kitob", "Jumhiriyyot", "O'n ikki", "Yangi devon", "Savlov qo'shiqlari", va boshqa she'riy to'plamlari nashr etilgan. O'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyatining tili va uslubini egallagani sayin uning she'rlarida o'zbekona musiqiy ravonlik kuchaya bordi. Serqirra ijodkor voqelikka faol munosabatda bo'lishga intilib, xalq va mamlakat hayotida ro'y bergan muhim voqealarni tasvirlashga, mehnat va kurash qahramonlari obrazini yaratishga alohida e'tibor berdi. U shu maqsadda doston janriga qo'l urib, "Toshkentnoma", "Iskandar Zulqarnayn", "Oqsoqol", "Jenya", "Ovchi qissasi", "O'rtoq" singari lirik asarlar yozdi. Bu asarlar butun ertakiy voqealar sifatida bolalarning qiziqishini uyg'otgani rost.

XX asrning yosh jurnalisti, tarjimon Maqsud Shayxzoda jahon adabiyotida ham o'zining qobiliyatini ko'rsatdi. Bizga ma'lum bo'lgan ingliz shoiri Shekspirning "Hamlet" tragediyasini o'zbek tiliga tarjuma qildi. U o'zini teatr borasida ham ko'rsatdi, masalan Tolstoy, Pushkin, Lermontov, Turgenov, Gyoto, Mark Tvin, Shekspir singari aql, idrok, nafosat xazinalari sifatida o'zbek teatriga kirib keldi. Shu tarixiga shoirimiz tarixni ham tashlab qo'ymadi, uni gavdalantirishga bel bog'ladi. Jumladan, "Jaloliddin Manguberdi", "Mirzo Ulug'bek", "Ulug'bek yulduzi", "Alpomish" kabi asarlarni yaaratdi. Bu asarlar o'quvchini kitobga bog'lab qo'yardi, ayniqsa har bir satridagi beqiyos mehr, tinimsiz mehnat, vatanparlik tuyg'usi, qahromohlik insonni o'ziga jalb qiladi. Ijodkor tarixiy mavzuda qalam tebratar ekan, bugungi kun uchun dolzarb ahamiyatga, ma'naviy va falsafiy qimmatga ega asarlar yaratishi lozimdir. Ayniqsa Mirzo Ulug'bek drammasida, Ulug'bekning illm-fan uchun fidoiyligi, jasorati va avlodlar uchun bebaho xazina ekanligini aytib o'tishi bu bizni yana bir bor faqlantiradi.

Vasiyatim, vasiyatim! Kim ham eshitgay,  
Mulkim yo'qliki, birov larga meros qoldirsam,

Xazinam yo‘q birovni boyitib qo‘ysam.  
Merosimdir kitoblarim va jadvallarim.  
Bir meroski, zamon uni mahv etolmaydi,  
Bir meroski, bahra topar undan yer yuzi...

Ulug‘bekning vasiyati – Shayxzodanin vasiyati. Shayxzoda bizga zamon mahv etolmaydigan meros qoldirdi. Inson asarlari, qoldirgan kitoblari bizni harakatga undaydi. Insondan mablag‘ emas, katta boylik bo‘lmish yaxshilik qoladi. Buyuk siymolarimizning boyligi bu bizlarga qoldirib ketgan nasihatlari, adabiy meroslari va kitoblaridir.

**XULOSA.** O‘rnida shuni ta‘kidlab o‘tmoqchimanki, agar biz avlodlar buyuk allomalarimizning ilmlarini yuksak darajada Maqsud Shayxzodadek qadrlaganimizda, O‘zbekiston xalqi dunyoda yetakchi o‘rinda turardi. Masalan biz ibn Sinodek harakat qilganimizda tibbiyot borasida Rossiya emas, biz birinchi o‘rinda turardik. Alisher Navoiydek harakat qilganimizda biz ingliz tilini emas, ular bizning o‘zbek va turkiy tilimizni o‘rganishar edi. Amir Temurdek harakat qilganimizda esa Amerika yoki Rossiya emas, bizning armiyamiz birinchi o‘rinda turardi. Al-Xorazmiydek harakat qilganimizda Nyuton yoki boshqa bir olim emas, biz fizik qonunlarni yaratardik va texnika borasida biz ularnikini emas, ular bizlarnikini foydalanishar edi.

Maqsud Shayxzoda ana shu qadryatlar, vatanparvarlikni, mehnatdan to‘qtamaslikni, buyuk maqsadlari orqasidan quvishni o‘rgatadi. Inson oldiga maqsad qo‘ydimi, unga qarab talpinishi va maqsadlari yo‘lida qanday sinovlar tursa ham oyoqda tik turishni va yengilmagan inson g‘olibligini ta‘kidlab o‘tadi. Shuning uchun ham unung asarlarini o‘qigan odam kitob ichiga, sahifalariga bog‘lanib qoladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yusuf Shomansur. Shayxzoda-bunyodkor shoir, T 1972;
2. G‘afurov I. O‘rtoq shoir. Maqsud Shayxzoda ijodiyoti, T 1975;
3. Zakirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T 1969;
4. Karimov N. “XX asr o‘zbek adabiyoti manzaralari” (Birinchi kitob). T O‘zbekiston, 2008-536;
5. Quronov Dilmurod. “Adabiyot nazariya asoslari”. Toshkent-2018. 248-b.
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Shayxzoda>